

## SHIFOXONA ICHI INFEKSIYASI, TARQALISH USULLARI VA PRIFILAKTIKASI.SHAXSIY GIGIENA HAQIDA TUSHUNCHA

Muallif: Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Pediatriya ishi fakulteti 1-bosqich talabasi

**Xidirov Xidirboy Ilhomjonovich**

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shifoxona ichi infeksiyalarining kelib chiqish sabablari, tarqalish yo‘llari, xavf omillari hamda ularning oldini olishda shaxsiy gigiyenaning o‘rni yoritilgan. Tibbiyot muassasalarida uchraydigan infeksiyalar bemorlar salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirishi, davolanish muddatini uzaytirishi va asoratlar rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Maqolada shifoxona ichi infeksiyalarining asosiy manbalari, mikroorganizmlarning yuqish mexanizmlari, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish zarurati hamda tibbiyot xodimlari va bemorlarning gigiyenik madaniyati tahlil qilingan. Ayniqsa, qo‘l gigiyenasi, himoya vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, sterilizatsiya va dezinfeksiya tadbirlarining ahamiyati alohida ta’kidlangan. Shuningdek, shaxsiy gigiyena qoidalariga qat’iy amal qilish shifoxona ichi infeksiyalarining oldini olishda eng samarali profilaktik choralardan biri ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** shifoxona ichi infeksiyasi, nozokomial infeksiya, shaxsiy gigiyena, qo‘l gigiyenasi, dezinfeksiya, sterilizatsiya, profilaktika, sanitariya

Shifoxona ichki infeksiyasi butun dunyo bo‘ylab sog‘liqni saqlashning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Shifoxona ichi infeksiyasi-bu bemor shifoxonaga kelgandan keyin,yoki undan chiqib ketgandan so‘ng 48-soat ichida kuzatiladigan yangi kasallik belgilari va asoratlaridir.Bizning va xorijiy tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra,shifoxona ichi infeksiyasi shifoxonaga yotqizilgan bemorlarning 5-20 foizida uchraydi.

Shifoxona ichi infeksiyasi - bemor shifoxonada davolanishi yoki tibbiy yordamga

murojaat qilishi natijasida, kasallik belgilari statsionarda yoki undan chiqqandan so'ng ambulatoriya-poliklinika muassasida yoki uy sharoitida paydo bo'lishidan qat'iy nazar yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlar qo'zg'atadigan shuningdek, tibbiyot xodimining ish faoliyati davomida yuqishi oqibatida yuzaga keluvchi yuqumli kasallikdir. Uzoq muddat davomida "shifoxona ichi infeksiyasi" tushunchasi faqatgina statsionardagi zararlanish va kasallanishga taalluqli bo'lgan. Hozirgi davrda shifoxona ichi infeksiyasi nafaqat bemorlarga shifoxonada, balki barcha davolash muassasalarida, tibbiy xizmat ko'rsatilishi bilan bog'liq kasallanish deb tushuniladi. Shifoxona ichi infeksiyasi jumlasiga bemorlarning kasalliklaridan tashqari tibbiy xodimlarning ham kasallanishlari kiritilgan. Inson sog'lig'i tibbiy xodimlar qo'lida ekan, tibbiy xodim ularni sog'lig'ini saqlashga astoyidil kirishib uni sidqidildan davolashi shart. Bunda tibbiy xodim o'zini bor bilimi, aql-donoligi, ehtiyotkorligi, qimmatli vaqtini ayamay kechayu kunduz sabr - toqat bilan bemor uchun sarflashi kerak bo'ladi. Buning uchun tibbiy xodim avvalo o'zini sog'lig'iga e'tibor qaratishi, tozalik va shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishi zarurdir. Zero uning har bir harakati bemorga o'rnak bo'lishi mumkin.

Shifoxonaga tushishdan oldin mavjud bo'lgan infeksiyaning davomi yoki asorati bo'lgan yuqumli kasalliklar shifoxona ichi infeksiyasi hisoblanmaydi. Shuning bilan birga bemordagi yuqumli kasallikdan tashqari boshqa infeksiya rivojlanishi yoki mavjud bo'lgan infeksiya ustiga yangi qo'zg'atuvchining qo'shilishi shifoxona ichi infeksiyasi deb baholanadi. Shifoxona ichi infeksiyasi qo'zg'atuvchilari o'z tuzilishiga ko'ra viruslardan tortib bir hujayrali jonivorlargaacha bo'lishi mumkin. Shifoxona ichi infeksiyasi qo'zg'atuvchilari ko'pincha bakteriyalar, kamdan-kam holatlarda viruslar va zamburug'lar bo'lishi mumkin. Infeksiyaning asosiy tarqatuvchilari bu bemorlarning o'zlari hisoblanishadi. Sababi yuqumli kasallik bilan shifoxonaga kelgan va hali to'liq tashxis qo'yilmagan bemorlar infeksiya manbai bo'lib xizmat qiladilar. Afsuski infeksiya tarqatuvchisi tibbiyot xodimlarining o'zlari ham bo'lishi mumkin. Bu albatta yo'l qo'yiladigan kichik xatoliklar oqibatida kelib chiqadi. Bu kabi xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun har bir tibbiyot xodimi ehtiyotkorlik bilan harakat qilishi lozimdir. Bemorlarni

parvarish qilish uchun jalb etiluvchi shaxslar shifoxona ichi infeksiyasi qo'zg'atuvchilarining manbai sifatida bemorlar va tibbiyot xodimlaridan keyin 3-o'ringa qo'yildi.

**Shifoxona ichi infeksiyasining yuqish mexanizmlari va yo'llari:** Shifoxona ichi infeksiyasi organizmga tabiiy va sun'iy yo'llar orqali kirishi mumkin. Quyida eng ko'p uchraydigan yuqish yo'llari keltirilgan:

Fekal - oral yuqish yo'li: bunda kasallik qo'zg'atuvchilari bemor odam najasi (fekaliya) orqali tashqi muhitga chiqib, og'iz orqali boshqa odam organizmiga yuqishidir.

Havo - tomchi yuqish yo'li: bunda kasal odam yo'talganda, aksirganda, gapirganda yoki nafas chiqarganda kasallik qo'zg'atuvchilari havo orqali mayda tomchilar bilan sog'lom odamga yuqishidir.

Transmissiv yuqish yo'li: bunda kasallik qo'zg'atuvchilari qon so'ruvchi hasharotlar orqali bemordan sog'lom odamga o'tadi.

Parenteral yuqish yo'li: to'g'ridan - to'g'ri qon, igma, jarrohlik asboblari yoki yaralar orqali organizmga infeksiya tushish yo'li.

Alimentar yuqish yo'li: kasallik qo'zg'atuvchilari bemorning oziq - ovqati yoki ichimligi orqali sog'lom organizmga tushishi.

Vertikal yuqish yo'li: bu infeksiyaning onadan bolaga turli yo'llar orqali yuqish usuli.

Bu usullar shifoxona ichi infeksiyasining asosiy tarqalish usullari hisoblanadi. Bemorlarning holsizligi va doimo hamda yaqindan bir - birlari bilan muloqotda bo'lishlari, tibbiy apparaturaning qo'llanishi bilan bog'liq bo'lgan sun'iy yuqish yo'llarining shakllanishi, antibiotiklarning keng qo'llanishi oqibatida chidamlilikka ega bo'lgan yangi shtammlarning paydo bo'lishi shifoxona ichi infeksiyasining tez ortib borishiga imkoniyat yaratadi.

**Shifoxona ichi infeksiyasi profilaktikasi va ular bilan kurashish**

**choralari:** Infeksiya qo'zg'atuvchilari manbalarini erta aniqlash va oldini olish bo'yicha ishlarni tashkil etish, dezinfeksiya amaliyotini muntazam yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan:

- mijozlar va tibbiyot xodimlari orasida bemorlar va tashuvchilarni erta va maksimal tarzda to'liq aniqlash;

- bemorlarni qabul qilishda to'g'ri saralash ;

- yiringli, yallig'lanishli va boshqa yuqumli kasalliklari bo'lgan bemorlarni aniqlash;

- Infeksiyadan zararlangan bemorlarni o'z vaqtida alohidalash (karantin holatiga olish) hamda tegishli bo'lim va palatalarga o'tkazish orqali shifoxona ichi infeksiyasini tezda oldini olish mumkin. Agarda bu holatda tezroq chora ko'rilmasa ortiqcha xarajatlar, bemorlarning o'ta zaiflashishi va hatto o'limgaham olib kelishi mumkin.

**Shaxsiy gigiena:** Shaxsiy gigiena - tozalikning bir bo'limi, shaxsiy hayot va mehnat faoliyatida amal qilinishi zarur bo'lgan gigienik rejim yo'li bilan odam sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan chora tadbirlar. Shaxsiy gigiena har bir kishining o'ziga va yoshiga bog'liq bo'lib aqliy va jismoniy mehnatni yo'lga qo'yish, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish vaqtida ovqatlanish, miriqib uxlash, mehnat va dam olishni to'g'ri yo'lga qo'yishdan iborat. Tor ma'noda, badan (teri, soch, tirnoq, tishlar), kiyim - kechak, ko'rpa - to'shak, turar-joyini toza saqlash tushuniladi. Shaxsiy gigienaga qat'iy rioya qilish orqali odam o'z salomatligi va immun sistemasining barqarorligini ta'minlaydi. Har bir kasallik shaxsiy gigiena qoidalarining buzilishidan kelib chiqadi. Shaxsiy gigiena va unga amal qilish tartibi bo'yicha nafaqat tibbiyot xodimlari, balki barcha yetarlicha bilimga ega bo'lishi va unga amal qilishi shart va zarurdir. Shaxsiy gigienaga rioya qilish orqali yuqumli kasalliklarning oldini olinadi, nafas yo'llari, teri, soch, tirnoq va og'iz bo'shlig'i salomatligi saqlanadi, odamlar bilan muloqot osonlashadi hamda o'ziga va salomatligiga bo'lgan ishonch oshadi.

**Xulosa:** Bugungi kunda yangicha texnika va texnologiyalar orqali shifoxonalarda, uyda va ishxonada tozalikni saqlash ancha osonlashgan. Bu shubhasiz

xavfli kasalliklarni oldini oladi va insonni sog'lom turmush tarzida hayot kechirishiga zamin yaratadi. Lekin o'zimizning e'tiborsizligimizdan turli yuqumli kasalliklar tarqalishi haliham keng qamrovda davom etmoqda. Buning yaqqol misoli yuqorida qayd etgan shifoxona ichi infeksiyasidir. Ushbu infeksiyalar ham aynan shaxsiy gigienaning buzulishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar sirasiga kirishadi. Shifoxona ichi infeksiyasi va shaxsiy gigiena bir - biri bilan aloqador bo'lgan tushunchalar bo'lib bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri sanalishadi. Tajribalarda isbotlangan, oddiy qo'lni tozalab yuvish orqali xavfli yuqumli kasalliklarning 20-50 % oldini olish mumkin. Shaxsiy gigienaga rioya qilmaslik orqali nafaqat o'zimizning balki yaqinlarimizning ham hayotini xavfga qo'yishimiz mumkin. Doimo yodda tuting: tozalik - bu faqat tashqi ko'rinish emas, balki salomatlik, madaniyat va hurmat belgisidir!.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1) Inomov K. hamshiralik ishi asoslari - Toshkent 2009
- 2) Zolikina L.S. Bemorlarning umumiy parvarishi 1995
- 3) Internet saytlari:  
[mt.sammi.uz](http://mt.sammi.uz)  
[www.tma.uz](http://www.tma.uz)  
[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)